O‘UT:*631.4*

CHO’L ZONASI TUPROQLARI VA ULARDAN FOYDALANISH.

ПОЧВЫ ПУСТЫННОЙ ЗОНЫ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ.

Xayriddinov Akmal Batirovich *q.x.f. n, dotsent,*
Qarshi Davlat universititi
Sultonova Zebinisi Shaxriddin qizi *magistr*
Qarshi Davlat universititi

Annotatsiya: *Cho`l zonasi tuproqlarining tabiiy unumdorligi va tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda inson o`z ehtiyojiga qarab, o`zgartirib borishi mumkin. Bugungi kunda cho`l zonasi tuproqlari dexqonchilikning katta rezervi hisoblanadi, cho`l zonasi tuproqlarining ona jinsi tarkibining ko`pchiligida karbonatlar va suvda oson eruvchi tuzlar mavjud. Mana shuning uchun ham cho`l sharoitida o`simliklar qoplamini oshirish tuproqning suv fizik xossalarini yaxshilash cho`l tuproqlari unumdorligini oshirishning bundan keyingi dolzarb vazifasi hisoblanadi.*

Аннотация: *Естественное плодородие почв пустынной зоны зависит от агроклиматических условий, а также человек может изменить их в зависимости от своих потребностей. Сегодня почвы пустынной зоны являются крупным сельскохозяйственным резервными угодиями, большая часть материнской породы почв пустынной зоны содержит карбонаты и легко растворимые в воде соли. Вот почему увеличение растительного покрова в условиях пустыни улучшение водно-физических свойств почвы является дальнейшей неотложной задачей повышения плодородия пустынных почв.*

Abstract:

Kalit so'zlar: *Cho`l zonasi, unumdorligi, sho`rlangan tuproqlar, ona jinsi, o`simliklar qoplamini, tuproq, sug'orma dexkonchilik, taqirli tuproqlar, taqirsimon, taqirli tuproqlar.*

Ключевые слова: *Пустынная зона, плодородие, засоленные почвы, материнская порода, растительный покров, почвы, орошаемое земледелие, лёсовые почвы, лёс, суглинистые почвы.*

Key words: *Desert zone, fertility, saline soils, parent rock, vegetation cover, soils, irrigated agriculture, forest soils, loess, loamy soils.*

Mavzuning dolzarbligi. Cho`l zonasi tuproqlarini meliorativ xolatini yaxshilash, unumdorligini oshirish sho`rlangan tuproqlarni sho`rini yuvish botqoq yerlarda quritish (melioratsiyasi) olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin yer, suv masalalariga bo`lgan munosabatlar o`zgardi va bu borada islohotlar olib borilmoqda. Cho`l zonasi tuproqlarining tabiiy unumdorligi va tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda inson o`z ehtiyojiga qarab, o`zgartirib borishi mumkin.

Bugungi kunda cho`l zonasi tuproqlari dexqonchilikning katta rezervi hisoblanadi, cho`l zonasi tuproqlarining ona jinsi tarkibining ko`pchiligida karbonatlar va suvda oson eruvchi tuzlar mavjud. Tuproqlarning suv fizik xossalari yaxshi lekin o`simliklar hisobiga to`planadigan biomassa u ham ildizlari hisobiga to`gri keladi (1 tonna atrofida)

Mana shuning uchun ham cho`l sharoitida o`simliklar qoplamini oshirish tuproqning suv fizik xossalarini yaxshilash cho`l tuproqlari unumdorligini oshirishning bundan keyingi dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligini isloh qilish fermer xo`jaliklariga biriktirilgan yer uchastkalarining optimallashtirish paxta, g`allaning xarid narxlarini oshirish bo`yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o`zgarishlari yuz bermoqda.

Yuza qismi juda ko`p poliganal yoriklarga ega, cho'l mintakasining tekisliklarida rivojlangan, loyli tuproqlar taqirlar deb ataladi. O`zbekiston taqirli tuproqlar Qizilqum, Qarshi cho`li, Orol bo`yi va boshqa hududlarda keng tarqalgan. Taqirlarning tuzilishi va genezisini birinchi bo'lib, 1890 yilda taniqli rus geolog olimi V.A.Obruchev o'rgangan. Keyinchalik bu tuproqlar I.P.Gerasimov (1931), S.Ya. Sushko (1932), U.U.Uspayenov (1940), A.A.Rozanov (1951), N.N.Bolshev (1952), N.I.Bazilevich va boshqalar (1953), N.A.Buskov, Ya.M.Nosirov (1961), Ye.V.Lobov (1965), M.U.Umarov (1966), N.V.Kimberg (1974), K.Gofurov, S.Abdullayev (1982), I.N.Felisiant va boshqalar (1984) tomonidan atroflicha tahlil qilingan va aniq ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqqot natijalari. Taqir tuproqlar cho`l mintaqasining boshqa tuproqlaridan o`zining og'ir mehanik tarkibi bilan farq qiladi. Taqirli tuproqlarning yuqori va yuza qismini o`ziga xos loyli fraksiyalardan hosil bo`lgani uchun geolog, geograf va botaniklar «cho`l loylari» deb ham nomlashgan. Taqirli tuproqlar quyidagi tipchalarga bo'linadi: 1.taqirsimon, 2.taqirli, 3. taqir, 4. utloqi-taqirli. Ular morfologik tuzilishi, fizikaviy, kimyoviy belgilari, xossalari, suv-tuz va biologik rejimlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Chunki ularning hosil bo'lish va rivojlanishida turli tuproq hosil qiluvchi jarayonlar ishtirok etadi. Taqirli tuproqlarga qo'yidagi tipchalar kiradi: taqirsimon, taqirli va taqirlar. Taqirli tuproqlarning mehanik tarkibi og`ir qumoqli va loyli. Taqirli tuproqlarning yuza 0-14 sm qatlami loyli bo`lishdan tashqari o'ziga xos poligonal yoriqlardan tuzilgan.

Taqir tuproqlarning mexanik tarkibi yuqorida qayd qilinganidek, og'ir qumoqli va loyli fraksiyalardan tuzilgan. (1- jadval)

Taqirli tuproqlarning mexanik tarkibi, %

1-jadval.

	Fraksiya, mm

Qatlam chuqurligi, sm	>0,25	0,25-0,10	0,10-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	>0,001	<0,01
2 kesma. Qarshi cho'li								
0-6	1,8	1,3	10,4	43,1	9,1	16,2	17,5	43,7
6-14	1,8	1,6	7,3	39,4	9,4	18,9	21,1	49,3
14-23	1,0	2,1	0,8	28,7	11,4	21,4	26,8	59,8
23-53	0,2	0,3	7,1	32,7	14,2	21,2	23,1	58,6
53-64	0,1	0,3	8,6	51,4	9,4	9,2	15,8	34,1
64-93	0,7	0,4	6,2	23,4	14,7	25,0	29,3	69,2
113-175	1,0	1,3	15,0	62,1	4,5	9,3	9,2	20,1

Shuning uchun bularning solishtirma og'irligi, hajm og'irligi, g'ovakli va boshqa xossalari cho'l zonasida tarqalgan boshqa tuproqlardan keskin farq qiladi.

Taqirli tuproqlarning agrokimyoviy ko`rsatkichlari.

2- jadval.

Qatlam chuqurligi, sm	Yalpi, %		S:N	Fosfor	
	gumus	azot		Yalpi, %	Harakatchan, mg/kg
2-kesma. Qarshi cho'li					
0-4	1,38	0,094	8,3	0,137	78,2
4-14	0,32	0,046	3,7	0,093	7,5
20-30	0,35	0,052	3,8	0,116	-
70-80	0,24	0,044	3,1	0,105	-

Gumus miqdori 0,9-1,38 % bo'lib, (2-jadval), cho'l mintaqasining eng gumusga boy, unumdor tuproqlaridan hisoblanadi. Gumus tarkibida gumin kislotalarining yangidan hosil bo'lgan birinchi va ikkinchi fraksiyalari asosiy o'rinni egallaydi.

Singdirish sig'imining yuqori bo'lishi taqirli tuproqlarga xos belgilardan biridir. Asoslar bilan tuyinish, sho'rlanishga moyilik va sho'rhoklanish taqirli tuproqlarga xos xususiyatlar jumlasiga kirib, ayrim joylarda sho'rlanmagan.

Uzbekistonda taqirli tuproqlar Sherobod, Qarshi va Malik cho'llari kabi hududlarning tog'oldi tekisliklarida, Surxondaryo, Qashkadaryo, Zarafshon va Amudaryoning deltalari, qadimiy terraslarida, shuningdek Qizilqumda, tug'ri chiziqli qatorlar va «serdok»lar shaklida loyli prolyuvial va allyuvial yotqiziqlarda juda ko'p uchraydi. Bizning fikrimizcha taqirlarning kelib chiqishiga ona jinslarning og'ir mexanik tarkibga ega bo'lishi hamda pastki qatlamlarda sho'rlanish jarayonlarining rivojlanishi sabab bo'ladi. Cho'l mintaqasida yog'in-sochin miqdorining qish-bahor davrida ko'payishi tufayli ayrim joylarda suv tuplanadi va tuproq qatlamining namlanish darajasi oshadi. Shunga qaramasdan tuproqning namlanishi faqat 30-50 sm qatlamda kuzatiladi.

Taqirlarning quyi qatlamlari esa quruq xolda rivojlanadi. Yozning issiq kunlar taqirlarning yuza qismi qurib, turli shakllardan iborat bo'lgan poligonal qatqaloqlardan tuzilgan tekis hududlarga aylanadi. Bu poligonal qatqaloqlar ayrim taqirlarda qishgi bahorgi namlanish davrida ham saqlanib qoladi. Ayni qatqaloqlarda nam davrlar lishayniklar va suv o'tlarining yashashi va ko'payishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Ularning biokimyoviy faoliyati natijasida tuproq paydo bo'lish jarayonlar rivojlanadi. Tuproqning ustki 15-20 sm qatlamida taqirlarga xos bo'lgan genetik qatlam hosil bo'ladi. Bu esa taqirlarni shakllanishiga va ularni alohida tuproq tipii sifatida ajratishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Boboho'jayev I.Uzokov R.Tuproqning tarkibi, hossalari va analizi. Toshkent. Mexnat.1990 yil.

2.L.T.Tursunov. K.U.Anorboyev. B.Shokirov. Qarshi cho'li sug'oriladigan sur qung'ir tusli va taqirli utloq tuproqlarda moyli ekinlar ustirish agrotexnikasiga doir muammolar. (Uzbekiston tuprokshunoslari va agorkimyogarlari jamiyati V kurultoyi materiallari).

3.L.T.Tursunov.B.I.Temirova. Sug'oriladigan taqirli-o'tloq tuproqlarning gumus va meliorativ holatini yaxshilashda sediratlarning roli. (Uzbekiston tuproqshunoslari va agorkimyogarlari jamiyati V qurultoyi materiallari). Toshkent 2010 yil.

4. Н.В. Кимберг Почвы правобережной части низовьев Амударьи. Труды института почвоведения АН Узбекистан вык.2, Ташкент. 1956 год (в соавторства).

5. Н.В. Кимберг. К вопросу ограничения между плотной почвенной зональностью и высотной почвенной поясностью. «Почвоведение» №11, 1961 год (в соавторство)